BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM
FAKULTETI
YASHIL IQTISODIYOT VA

2025/26

61010400-Logistika bakalavriat dasturi uchun QO'LLANMA

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930



Hurmatli talabalar!

Buxoro davlat universiteting professor-o‘qituvchilari va xodimlari 90 yillik tarixga ega ilm maskani talabasi bo‘lganingiz bilan tabriklaydi. Sizga taqdim etilayotgan ushbu qo‘llanmaning maqsadi siz qabul qilingan bakalavriat(magistratura) dasturining asosiy tafsilotlarini tushuntirishdir. Ushbu qo‘llanmadagi ba’zi ma’lumotlar bir qarashda murakkab va qo‘rqinchli bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin siz Universitet va dastur haqida boshlang‘ich bilimlarni egallaganingizdan keyin siz ushbu qo‘llanmani juda foydali ekanligini tushunib yetasiz. Ushbu qo‘llanma sizga dastur tuzilishi, baholash tartiblari, dasturga mas’ul shaxslar va boshqa muhim jihatlarini tushunishga yordam beradi deb umid qilamiz. Ushbu qo‘llanmaning nusxalarini universitet Axborot resurs markazidan topishingiz mumkin.

Tahsil olish jarayonidagi qiyinchiliklar sizning o‘zingizdagi kuchli tomonlaringizni kashf qilish va ulardan foydalanish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Bu davr sizning xotirangizda iliq fikrlar bilan qoladi va bu yerda orttirgan ko‘plab do‘stlaringiz bir umr siz bilan qoladi deb umid qilaman.

Kursdagi tengdoshlaringiz turli xil bilimlarga, qobiliyatlarga, umid va intilishlarga ega ekanligini bilib olasiz. Umid qilamizki, siz dastur davomida kursdoshlaringiz bilan muloqot qilish orqali foydali hayotiy tajriba va bilimlarga ega bo‘lasiz.

Ba’zilaringiz universitetni tugatgandan so‘ng qiziqarli va yuqori maoshli ishga joylashishni maqsad qilgan bo‘lsangiz, boshqalaringiz magistratura yoki tadqiqot darajasida o‘qishni davom ettirishni xohlashingiz mumkin. Universitet sizga o‘qish va shaxsiy rivojlanishingizda yordam berish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo o‘qish va o‘rganish uchun asosiy mas’uliyat sizning o‘zingizda qoladi.

Biz sizni doimiy ravishda sinovdan o‘tkazadigan va barcha qobilyatlaringizni kash qiladigan akademik muhitni yaratishga intilamiz. Ezgu maqsadlaringizga erishishingiz uchun barchamiz - siz, o‘qituvchilar va Universitet o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish juda muhimdir. Keling, maqsadimizga erishish va tahsil olish davringizni qiziqarli va qimmatli bilim va tajribaga boyitish uchun birgalikda harakat qilaylik.

O. X. Xamidov
Buxoro davlat universiteti rektori

MUNDARIJA

Umumiy ma’lumotlar

Universitet haqida 4

BuxDU dasturlari..... 7

Universitet xizmatlari

Talabalar turar joyi ……..... 10

Talabalarga xizmat ko’rsatish markazi 11

Axborot resurs markazi 12

Korrupsiyaga qarshi kurash ……..…..... 12

Yoshlar ittifoqi ……..…….... 12

BuxDU xalqaro markazlari…….…….. 13

Sport ……..…….... 13

O’quv yili jarayoni

Oquv jarayoni tashkiliy tuzilmasi 14

UNIWORK tizimidan ro’yxatdan o’tish tartibi 16

HEMIS tizimidan foydalanish bo’yicha ko’rsatmalar 16

Dastur tafsifi va fan platformalari

Dastur haqida 17

Fan platformalari …..... 18

UNIVERSITET HAQIDA

1922-yilda Buxoro Xalq Jumhuriyati qarori bilan Buxoro va Chorjo‘yda xalq maorifi instituti ochildi. Bu – zamonaviy oliy o‘quv yurti tashkil etish yo‘lidagi dastlabki harakat edi. F.Xo‘jayev va A.Fitrat shu institut negizida dorilfunun tashkil etish g`oyasi bilan chiqdilar, ammo BXJning tugatilishi bilan bu g`oya amalga oshmay qoldi. 1930-yilga kelib esa Buxoro pedagogika instituti ochildi. Dastlab uning kimyo-biologiya va tarix-ijtimoiyot singari ikki bo‘limida 45 talaba tahsil olgan. Institutning oyoqqa turishida A.Fitrat, Miyonbuzruk Solihov, Muso Saidjonov, B.Cho‘ponzoda, I.Kojin, F.Trudakov, P.Korolenko, N.Merkulovich, V.Abdullayev, G.Yusupov kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida bir qator o‘qituvchilar va 47 talaba ko‘ngillilar qatorida urushga ketdi. Bu murakkab davrda talabalarni o‘qishga ko‘proq jalb etish maqsadida Qarshi, G`ijduvon va Shofirkonda filiallar ochildi. Hozirgi paytda mustaqil O‘zbekistonning yetakchi oliy o‘quv yurtlari darajasiga ko‘tarilgan Xorazm, Qarshi va Termiz davlat universitetlari ilk bor filial sifatida BuxDPI tarkibida ish boshlagan edi.

Institut 1992-yilda universitetga aylantirildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil 28-fevraldagi Farmoniga asosan Buxoro pedagogika institutiga Universitet maqomi berilgach, imkoniyatlar yanada kengaydi.

Ayni damda BuxDU respublika OTMlari orasida talabalar soni bo‘yicha 24336 nafar talaba bilan birinchi o‘rini egallab turibdi.

2021-yil 1-yavardan boshlab BuxDUga moliyaviy mustaqillik berildi.

Buxoro davlat universiteti tarkibidagi mavjud fakultetlar va institut joylashuvi:

	Fakultet/ Institut nomi	**Joylashgan o‘rni**	**Xaritada joylashuvi (QR kodni skanerlang)**
1	Fizika-matematika fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Bosh bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	
2	Axborot texnologiyalari fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Bosh bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	

3	Tabiiy fanlar fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Ikkinchi bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	
4	Filologiya fakulteti	Buxoro davlat universitetining Filologiya fakulteti o‘quv binosi (200122, Buxoro sh. Alpomish ko‘chasi, 1-uy)	
5	Xorijiy tillar fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Uchinchi bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	
6	Tarix va madaniy meros fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Uchinchi bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	
7	Pedagogika fakulteti	Buxoro davlat universitetining Pedagogika fakulteti binosi	

8	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti	Buxoro davlat universitetining Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘quv binosi	
9	Jismoniy madaniyat fakulteti	Buxoro davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakulteti o‘quv binosi	
10	Iqtisodiyot va turizm fakulteti	Fayzullo Xo‘jayev kampusi Ikkinchi bino (Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy)	
11	Chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti	Buxoro davlat universitetining Chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti o‘quv binosi	
12	San`atshunoslik fakulteti	Buxoro davlat universitetining San`atshunoslik fakulteti o‘quv binosi	

13	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti	Buxoro davlat universitetining Agronomiya va biotexnologiya fakulteti o‘quv binosi	
14	Pedagogika instituti	Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti binosi	

Universitet kontakt ma’lumotlari

Tel: (+998) 65 221-29-14
Faks: 8(365) 221-27-07
Rasmiy sayt: https://buxdu.uz
E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz
Joylashuvi:
200117, Buxoro, M.Iqbol ko`chasi 11-uy

BUXDU TA’LIM DASTURLARI

Ayni paytda universitetda 13 ta fakultet, 38 ta kafedra va maxsus sirtqi bo‘limi hamda malaka oshirish markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Universitetda 57 ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi bakalavriat, 12 ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha sirtqi bakalavriat, 11 ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kechki bakalavriat, 28 mutaxassislik bo‘yicha magistratura dasturlari mavjud.

Kunduzgi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari

60230101 Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
60230102 Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili
60230112 Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili
60230113 Filologiya va tillarni o‘qitish: nemis tili
60230114 Filologiya va tillarni o‘qitish: fransuz tili
60230201 Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili
60230202 Tarjima nazariyasi va amaliyoti: nemis tili
60230203 Tarjima nazariyasi va amaliyoti: fransuz tili
60220300 Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)
60220300 Tarix (islom tarixi va manbashunosligi)
60220400 Arxeologiya
60540100 Matematika
60540200 Amaliy matematika

60510100 Biologiya (turlari bo‘yicha)
60530900 Fizika
60531000 Mexanika va matematik modellashtirish
60530100 Kimyo (turlari bo‘yicha)
60530400 Geografiya
60211400 Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik
60211500 Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha)
60210500 Rangtasvir: dastgohli
60210800 Amaliy san’at: badiiy kulolchilik
60212000 Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
60310900 Psixologiya (amaliy psixologiya)
60310900 Psixologiya (sport psixologiyasi)
60310900 Psixologiya (oila psixologiyasi)
60320100 Jurnalistika: bosma axborot vositalari jurnalistikasi
60320200 Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
60310100 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60412500 Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60411300 Biznesni boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)
60410800 Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60410100 Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
60411700 Logistika (agrologistika)
60412400 Agrobiznes va investision faoliyat
60710200 Biotexnologiya (tarmoqlar bo‘yicha)
60610100 Komp’yuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo‘nalishlar bo‘yicha)
60610200 Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60710400 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60810700 Agrokimyo va agrotuproqshunoslik
60811000 O‘simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha)
60811300 Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo‘yicha)
60811800 Mevachilik va uzumchilik
60811900 Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik
60812000 Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish
60920100 Ijtimoiy ish (oila va bolalar bilan ishlash)
60920100 Ijtimoiy ish (fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari)
61010100 Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish
61010400 Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)
61010300 Sport faoliyati: kurash
61010302 Sport faoliyati: boks
61010303 Sport faoliyati: voleybol
61010313 Sport faoliyati: futbol
61010316 Sport faoliyati: erkin kurash
61010501 Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: ingliz tili
61010502 Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: nemis tili
61010503 Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: fransuz tili
60610600 Dasturiy injiniring

Sirtqi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari

60230101 Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
60540100 Matematika
60510100 Biologiya (turlari bo‘yicha)
60530400 Geografiya
60310900 Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha)
60310100 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60412500 Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60410100 Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
60920100 Ijtimoiy ish (fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari)
61010100 Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish
61010400 Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)
61010313 Sport faoliyati: futbol

Kechki bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari

60230101 Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
60540200 Amaliy matematika
60310100 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60411300 Biznesni boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)
60412500 Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60410100 Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
60610600 Dasturiy injiniring
61010100 Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish
61010400 Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)
61010316 Sport faoliyati: erkin kurash
61010303 Sport faoliyati: voleybol

Magistratura ta’lim yo‘nalishlari

70260502 Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti
70260502 Adabiyotshunoslik: ingliz adabiyoti
70230502 Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti
70230101 Lingvistika: o‘zbek tili
70230101 Lingvistika: ingliz tili
70230101 Lingvistika: fransuz tili
70230101 Lingvistika: rus tili
70230201 Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (ingliz tili)
70220301 Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)
70220303 Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo‘yicha)
70220401 Arxeologiya
70230301 Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (tillar bo‘yicha)
70230501 Etnografiya, etnologiya va antropologiya
70540101 Matematika (yo‘nalishlar bo‘yicha)
70540201 Amaliy matematika (sohalar bo‘yicha)
70510101 Biologiya (fan yo‘nalishi bo‘yicha)
70530901 Fizika (yo‘nalishlar bo‘yicha)
70530904 Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror atrof-muhit fizikasi
70530905 Yarim o‘tkazgichlar fizikasi
70530101 Kimyo (fan yo‘nalishi bo‘yicha)
70530402 Geografiya (o‘rganish ob’ekti bo‘yicha)
70530701 Tuproqshunoslik (tadqiqot turi bo‘yicha)
70310901 Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha)
70310102 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
70610101 Komp’yuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo‘nalishlar bo‘yicha)
70610204 Axborot tizimlari (tarmoqlar bo‘yicha)
71010401 Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)
71010401 Turizm (ziyorat turizmi)

UNIVERSITET XIZMATLARI

Buxoro davlat universitetida talabalar o’zlarini qiynaydigan muammolariga oson yechim topishi, fan yuzasidan berilgan topshiriqlarni chuqur o’zlashtirishi, darsdan tashqari vaqtlarini qiziqarli va samarali tashkil qilishlari, ishtimoiy jihatdan faol bo’lishlari, sog’lom va malakali kadrlar bo’lib yetishishlarini ta’minlash maqsadida bir qator bo’lim va markazlari faoliyati yo’lga qo’yilgan:

- Talabalarga xizmat ko’rsatish markazi;
- Axborot resurs markazi;
- Universitet markazlari;
- Yoshlar ittifoqi;
- Universitet matbuot xizmati;
- Sport inshootlari;
- Korrupsiyaga qarshi kurash.

TALABALAR TURAR JOYI



Buxoro Davlat universitetida 7 ta talabalar turar joyi binolari mavjud bo‘lib, ularda jami 2048 ta o‘rin talabalar yashashi uchun mo‘ljallangan. 1-6- binolar sig`imi 275 o‘rindan bo‘lib, jami 1650 o‘rindan, 7-bino sig`imi 398 o‘rindan iborat. Nogiron talabalar uchun alohida har bir binoda 3 o‘rinli xona ajratilgan.

TTJ binolarida jami 64 ta oshxona mavjud bo‘lib, 128 dona elektr plita va har bir oshxonada 1 donadan jami 64 dona muzlatgich o‘rnatilgan. 8 ta kir yuvish xonasida 13 dona zamonaviy kir yuvish mashinalari o‘rnatilgan. 12 ta dazmollash xonasida 72 dona dazmol mavjud. Binolarning har bir qavatida hojatxona va yuvinish xonasi (dush) tashkil etilgan va faoliyat olib bormoqda. Talabalar turar joyi foyesida 10 ta zamonaviy kompyuter qo‘yilgan va internet tarmog`iga ulangan. Binolarning har bir qavatida bittadan hamda fayelarda jami 30 ta televizor qo‘yilgan. TTJ binolarining har bir qavatida ma`naviyat xonalari tashkil etilgan.





Qulayliklar:

- Kompyuter xonalari;
- Dars xonalari;
- Internet;
- Umumiy oshxona;
- Umumiy yuvinish xonasi;
- Umumiy hojatxona;
- Dam olish xonasi.

Talabalar turar joyiga onlayn ariza berish:
http://uniwork.buxdu.uz/yotoqxona.asp

TALABALARGA XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

Joylashuvi: Bosh bino 1-qavat 124 xona
Ish vaqti: 8:30 dan 16:30 gacha
Ish kunlari: Dushanbadan shanbagacha
Ko'rsatiladigan asosiy xizmatlar:

- O'qish to'g'risida ma'lumotnoma olish;
- Diplom (duplikat) olish;
- To'lov shartnomasini olish;
- Harbiy bo'limdan ma'lumotnoma olish;
- Transkript olish;
- O'qishni ko'chirish haqida ma'lumotnoma olish;
- Akademik ta'til haqida ma'lumot olish;
- Talabalar safidan chetlashtirish ma'lumot olish;
- O'qishni tiklash haqida ma'lumot olish;
- Shaxsiy ma'lumotlarni o'zgartirish haqida so'rov jo'natsh;
- Karyera markazi haqida ma'lumot olish;
- Ichki tartib qoidalar haqida ma'lumot olish;
- Universitetdagi mavjud kurs va markazlar haqida ma'lumot olish;
- Talabalar turar joyi haqida ma'lumot olish;
- UNIWORK platformasidan ro'yxatdan o'tish bo'yicha ma'lumot olish;
- Shikoyat va takliflar jo'natish;
- Fakultetlar haqida ma'lumot olish;
- Ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumot olish;
- Guruhdan guruhga o'tish bo'yicha ma'lumot olish;
- Talabalar almashinuvi haqida ma'lumot olish;
- O'quv shartnomasi (learning agreement) olish;
- "Credit recognition" olish;
- Fanlarga registratsiya qilish;
- Imtihonlarga appelyatsiya berish;
- Imtihonlarga sababli kirmaganlik to'g'risisda ma'lumot jo'natish;
- Talabalaik guvohnomalarini olish;
- Yillik akademik calendar haqida ma'lumot olish;
- Darslar jadvali haqida ma'lumot olish;
- Yakuniy imtihonlar jadvali haqida ma'lumotlar olish;
- Baholash natijalari haqida ma'lumot olish (imtihon, kursishi natijalari va jarayonlari haqida);
- Stipendiyalar haqida ma'lumot olish;
- Ilmiy konferensiyalar haqida ma'lumot olish;
- Sertifikatlar olish;
- Akademik grantlar haqida ma'lumot olish;

Telefon: +99865-221-26-37
E-mail: buxduregister@buxdu.uz
buxduregister@gmail.com

AXBOROT RESURS MARKAZI

Joylashuvi: BuxDU asosiy kampus,
Ish vaqti: 8:30 dan 16:30 gacha
Ish kunlari: Dushanbadan shanbagacha
Ko‘rsatiladigan asosiy xizmatlar:

- Kutubxona fondidagi kitoblarni talabalarga va o‘qituvchilarga mutola qilsih uchun berish;
- Elektron kutubxona fondni yangilab borish;
- Talabalarga ta’limga tegishli kompyuter va internet xizmatlaridan foydalanishiga imkoniyat yaratib berish;
- Badiiy kechalar tashkil etish.

Buxoro davlat universitetining elektron kutubxonasi: http://elib.buxdu.uz
Telefon: +99865-221-29-14
E-mail: h.l.salixova@buxdu.uz

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMINI BOSHQARISH BO’LIMI

Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi o‘quv yili mobaynida, dars jarayonlarida, nazorat imtihonlarida yoki bitiruv malakaviy ishlarida pedagog-xodimlar va talabalar orasida ta’magirlik, poraxo‘rlik va moddiy manfatdorlik kabi holatlarning yuz berishini oldini olish asosiy vazifasi hisoblanadi.
Yuqoridagiholatlarning birortasiga duch kelsangiz bo‘limga murojaat qiling!

Telefon: +998883060666
E-mail: buxdu_korrupsiyagaqarshikurash@mail.ru
Telegram: @anti_corbot
t.me/BuxDu_KorrupsiyagaQarshiKurash

BUXDU YOSHLAR ITTIFOQI

Buxoro davlat universiteti Yoshlar ittifoqi quyidagi vazifalarni bajaradi:

Iqtidorli, faol, intiluvchan talabalarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash va ularning istedodlarini ro‘yobga chiqarish

Talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishda ko‘maklashish, to‘garaklar tashkil etish.

BUXDU XALQARO MARKAZLARI

JICA markazi: Yaponiyaning JICA xalqaro markazi bilan hamkorlikdagi **y**apon tili va madaniyatini o‘rgatuvchi markaz.
Joylashgan o‘rni: Buxoro davlat universiteti, Bosh bino 3-qavat





KOICA markazi: Koreyaning KOICA xalqaro markazi bilan hamkorlikdagi koreys tili va madaniyatini o‘rgatuvchi markaz.
Joylashgan o‘rni: Buxoro davlat universiteti, Bosh bino 3-qavat 323-xona





SPORT

Universitet talabalarining sport bilan shug‘ullanib jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun universitet hududida bir qator qulayliklar yaratilgan. Gimnastika va badiiy gimnastikaga ixtisoslashtirilgan 24x12 metrli, sport o‘yinlari(mini futbol, voleybol, qo‘l to‘pi, basketbol) sport turlariga ixtisoslashtirilgan 36x18 metrli, yakkakurash turlariga ixtisoslashgan 45x25 metrli kurash zali, 24x12 metrli boks sport zallari mavjud. Talabalar ta’lim olishida usti yopiq sport inshootlaridan tashqari 2 ta 40x20 metrli kichik, 1 ta 110x90 metrli katta futbol maydoni, 400 metrli yengi atletika yo‘lagi, uzunlikka sakrash, yado, granata uloqtirish sektorlari, 1 ta voleybol, 2 ta basketbol va katta tennis maydonlari talabalarimizga ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bilimlarini boyitishga xizmat qilmoqda.

O’QUV JARAYONINING TASHKILIY TUZILMASI

Buxoro davlat universitetida bakalavr ta’lim dasturlari 3 yil yoki 4 yil, magistratura dasturlari 2 yilni tashkil etadi. Buxoro davlart universiteti 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab kredit-modul tizimida o‘qishni tashkil qilib kelmoqda. O‘quv jarayonida turli xil xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida talabalardan kredit-modul tizimi to‘g‘risida bir qator ma’lumotlar bilan tanishib chiqishalari shart.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 — 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o‘quv rejasidagi majburiy fanlar bo‘lishi shart.

Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo‘yicha tegishli kreditlarni o‘zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi.

Ta’lim oluvchini kursdan kursga o‘tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. BuxDUda talabalarni kursdan kursga o‘tkazishda GPA ko‘rsatkichini 2.8 etib belgilangan. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o‘qish soni chegaralanmaydi. Jami ta’lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o‘qishga qabul qilinganidan so‘ng 4 yilgacha deb belgilangan.

Asosiy tushunchalar izohi:

GPA (Grade Point Average) — ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati.

akademik mobillik — oliy ta’lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta’lim muassasasiga o‘qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi — ikki yoki undan ortiq oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit — ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta’lim muassasasi — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta’lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko‘chirish — talabalarning akademik mobilligini ta’minlash maqsadida bir oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirish va tan olish;

kredit to‘plash — ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut). Ta’lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo‘riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta’lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta’lim dasturi — bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv jarayonini amalga oshirishga mo‘ljallangan ta’limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta’limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot-resurs va o‘quv-metodik ko‘rsatmalar majmui;

ta’lim natijalari — talaba tomonidan o‘zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o‘zlashtirgan ko‘nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o‘qish yuklamasi — talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari — ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi;

ro‘yxatga olish xizmati — ta’lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalar bo‘yicha ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o‘quv natijalarini ro‘yxatga olish, bilimini nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta’lim elementlari — ta’lim dasturining bir qismi bo‘lib, ta’lim olish natijalariga erishish va ta’lim dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi o‘qitish turi;

transkript — ta’lim olishning tegishli davrida o‘zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko‘rsatib o‘tilgan fanlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

UNIWORK TIZIMI

UNIWORK tizimi Buxoro davlat universiteti xodimlari, talabalari, abiturientlar va fuqarolarga universitet xizmatlarini onlayn tarzda amalga oshiruvchi platforma bo‘lib unda talabalar shaxsiy hujjatlar jildi, talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, to‘lov kontrakltidan qarzdorlikni aniqlash, dars jadvalini kuzatish, fanlardan test nazoratlarini topshirish va boshqa interaktiv xizmatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.

Platformaga o‘tish linki: http://uniwork.buxdu.uz/

UNIWORK tizimidan ro‘yxatdan o‘tish uchun video qo‘llanma:
https://www.youtube.com/watch?v=WeA-54rPgOM

HEMIS TIZIMI

HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi hamda oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog‘oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Platformaga o‘tish linki: https://student.buxdu.uz/tg/dashboard/login

HEMIS tizimidan foydalanish haqida video qo‘llanma:
https://www.youtube.com/watch?v=2CWjW9mWGUc

61010400 - LOGISTIKA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHINING UMUMIY TASNIFI

Ta'lim shakli: kunduzgi
Ta'lim tili: o'zbek
Dastur davomiyligi: 4 yil
Beriladigan daraja: bakalavr

Dastur nomi	**Dastur Kod**
Logistika	61010400

61010400 - Logistika ta'lim yo'nalishida ta'lim oluvchi bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi zarur. O'qish muddati 4 yil bo'lib, talaba dastur yakunlangunga qadar 240 kredit to'plashi kerak. Talaba uchun bir ECTS kreditning soatlardagi miqdori 30 akademik soatni tashkil etib, talabaning bir yillik o'quv yuklamasi 1800 akademik soatdan iborat bo'ladi. Shundan – 40% auditoriya soati, 60% mustaqil ta'lim soatiga bo'linadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi fanlar katalogida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi.

61010400 - Logistika ta'lim yo'nalishi – xizmatlar sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarish, xarid, ishlab chiqarish, taqsimot, transport va omborxona logistikasi jarayonlarini tashkil etish, ta'minot zanjirlarini rejalashtirish va optimallashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatda yuklarni yetkazib berishni tashkil etish, agrologistika va yashil logistika tamoyillarini joriy etish, logistika xarajatlari va samaradorligini tahlil qilish, raqamli texnologiyalar asosida logistika tizimlarini boshqarishga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

61010400 - Logistika ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat turlari:

- Tashkiliy-boshqaruv;
- Ishlab chiqarish-texnologik (logistik jarayonlarni tashkil etish);
- Axborot-tahliliy faoliyat;
- Ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- Tadbirkorlik va tijorat faoliyati.

61010400 - Logistika ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadigan logistika, ta'minot zanjirini boshqarish va xizmatlar sohalarini qamrab oluvchi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan muddatlarda o'qishni davom ettirishlari mumkin.

FANLAR KATALOGI

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Amaliy matematika		
Fan kodi: AMAT11210	**Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):** 5	**davomiyligi:** 1 semestr
Kafedra: Differensial tenglamalar		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Logistika		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: To'rayev Sh.F.		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 150	**Email:** turaevshuxratjon@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): To'rayev Sh.F.		
Prerekvizitlar: Matematik analiz, Chiziqli algebra, Analitik geometriya	**Tanlov turi:** majburiy fan	
Fanning qisqacha bayoni: *Kursda iqtisodiyotning barcha yo'nalishlarida qo'llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o'rganiladi. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz va chiziqli programmalashtirish bo'limlaridan iborat. Iqtisodiy masalalarni modellashtirish, tahlil qilish va yechish uchun zarur matematik apparat o'zlashtiriladi.*		

Fanning maqsadi: Talabalarga iqtisodiy masalalarni yechish uchun matematik apparatni, matematik modellashtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish; matematik usullarni kelajakdagi professional faoliyatida iqtisodiy jarayon va hodisalarni chuqur o'rganish hamda prognoz qilish imkoniyatini berish; mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va ilmiy izlanishlarga qiziqishni rivojlantirish.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Matematikaning iqtisoddagi rolini tushunish;
- Chiziqli algebra, analitik geometriya va matematik analizga oid masalalarni yecha olish;
- Ko'p tarmoqli iqtisod masalalarida matritsaviy tahlil qila olish;
- Katta hajmdagi ma'lumotlar ombori (big data)ni tahlil qilishda chiziqli algebra elementlaridan foydalana olish;
- Iqtisodiy masalalarga mos funksiyalarni yaratish va uni tahlil qilish;
- Iqtisodiy masalalarning matematik modelini yaratish va mantiqiy fikrlash ko'nikmasi;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan insholar, taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Matritsa va ular ustida amallar	2	2	6
2	Determinantlar nazariyasi	2	2	6
3	Matritsa rangi. Teskari matritsa	2	2	6
4	Vektorlar sistemasi	2	2	6
5	Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi. Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli	2	2	6
6	Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning matritsalar usuli. Kramer qoidasi	2	2	6
7	Bir jinsli chiziqli algebraik tenglamalar. Fundamental yechimlar sistemasi	2	2	6
8	Arifmetik vektor fazo. Chiziqli fazo	2	2	6
9	Chiziqli operatorlar va ularning xossalari	2	2	6
10	Kvadratik formalar	2	2	6
11	Analitik geometriya elementlari	2	2	6
12	Chiziqli programmalashtirish masalasi: yechimlari va ularning xossalari	2	2	6
13	Chiziqli programmalashtirish masalasini simpleks usulida yechish	2	2	6
14	Chiziqli programmalashtirishda ikkilanish nazariyasi	2	2	6
15	Transport masalasi	2	2	6
Jami		**30**	**30**	**90**

Adabiyotlar

1. Sh.Sharahmetov, O.Qurbanov. Iqtisodchilar uchun matematika, ISBN 978-9943-07-554-2, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.
2. Высшая математика для экономистов, под. ред. Крамера Н.Ш.-М.: ЮНИТИ, 2010.
3. Hoy M.s Livernois J. et. all. Mathematics for Economics. The MIT Press, London&Cambridge, 2011. 1117 p. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" NMIU. 2017. 56 b
3. Nasritdinov G'., Abduraimov M, Iqtisodchilar uchun matematika o'quv qo'llanma. -T. "Universitet" 2001. 124
4. Ayupov A.Sh., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X., Xaydarov F.H. Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 296-bet, 2019-y.
5. Xashimov A.R., Sotvoldiyev A.I., Xujaniyozova G.S., Xolbozorov Q.X. Iqtisodchilar uchun matematika: 1-modul (chiziqli algebra asoslari va uning iqtisodiyotga tatbiqlari). Darslik. T.: "Nihol-print" OK. 2022. 316 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)
6. Бабаджанов Ш.Ш. Сборник задач по дисциплине "Математика для экономистов". Методическое пособие. Т.: ТФИ. 2017. 296 с. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)
7. Татарников О.В., Шевед Е.В., Шершнев В.Г. Высшая математика для экономистов. Учебник. М.: Кнорус. 2021. 630 с. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)
8. Красс М. С., Чупринов Б. П. Математике для экономического бакалавриата. - М.: Дело, 2006
9. Татарникова О.В. Высшая математика для экономистов. Практикум. М.: Кнорус. 2020. 317 с. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)

10. Xashimov A.R., Xujaniyazova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya". 2017. 386 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)

Internet saytlari

1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. www.president.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
3. www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy vebsayti
4. www.pearson.com - Pearson Britaniya ta'lim kompaniyasining rasmiy veb-sayti
5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
6. http://images/yandeks/ru
7. http://www.ziyonet.uz/
8. http://www.allmath.ru/
9. http://www.mcce.ru/
10. http://lib.mexmat.ru/

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Seshanba	15:00	513 xona
2.	Juma	15:00	515- xona

Baholash:

	Oraliq nazorat		Yakuniy nazorat	Jami ball
Nazorat soni	I	II	I	100
Ajratilgan ball	30	30	40	
Nazorat turi	Seminar mashg'ulotlari va og'zaki-yozma nazorat (30 ball)	Mustaqil ta'lim ishlanmasi: loyiha yoki referat (30 ball)	Yozma ish yoki test (40 ball)	

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Iqtisodiyot nazariyasi		
Fan kodi: IQN11210	**Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):** 10	**davomiyligi:** 2 semestr
Kafedra: Iqtisodiyot		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Logistika		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Qodirova N.R.		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 300	**Email:** nozi1551@icloud.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Qodirova N.R., Qosimova H.J.		
Prerekvizitlar: Moliya asoslari (FINANC6), Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (HISET4), Statistika asoslari (STATIS6)	**Tanlov turi:** majburiy fan	
Fanning qisqacha bayoni: *"Iqtisodiyot nazariyasi" fani talabalarni jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.*		

Fanning maqsadi: Talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy va amaliy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Iqtisodiyot asoslarini, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish;
- Makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni, iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini bilish va iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash;
- Talab va taklif mexanizmi, raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlar, narxning shakllanishi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Talab va taklif funksiyalarini tuzish, elastiklik koeffitsientlarini hisoblash va bozordagi holatni tahlil qila olish;
- Aholi daromadlari va ularning taqsimlanishini Djini koeffitsienti bo'yicha baholash;
- Iqtisodiy muammolarni hal etish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan insholar, taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma’ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg’ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta’lim soatlari
1	Iqtisodiyotga kirish	2	2	6
2	Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari	2	2	6
3	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar	2	2	6
4	Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi	2	2	6
5	Bozor iqtisodiyotiga o’tish davri	2	2	6
6	Talab va taklif tahlili asoslari. Bozor muvozanati	2	2	6
7	Iste’molchilar tanlovi nazariyasi	2	2	6
8	Ishlab chiqarish va xarajatlar	2	2	6
9	Raqobat va narxning shakllanishi	2	2	6
10	Monopoliyaning mohiyati va iqtisodiy asoslari	2	2	6
11	Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi	2	2	6
12	Ish haqini aniqlash	2	2	6
13	Agrar munosabatlar va agrobiznes	2	2	6
14	Daromadlarning taqsimlanishi, tengsizlik va qashshoqlik	2	2	6
15	Iqtisodiyotda davlatning roli	2	2	6
16	Makroiqtisodiyotga kirish. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar	2	2	6
17	Qisqa muddatli va uzoq muddatli iqtisodiy o’sish modellari / endogenous growth theory	2	2	6
18	Bank tizimi. Pul-kredit siyosati / monetary policy (1-qism)	2	2	6
19	Bank tizimi. Pul-kredit siyosati / monetary policy (2-qism)	2	2	6
20	Pul, inflatsiya	2	2	6
21	Moliyaviy tizim	2	2	6
22	Davlat byudjeti va fiskal siyosat	2	2	6
23	Iste’mol, jamg’arma, investitsiya	2	2	6
24	Milliy iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanishi	2	2	6
25	Iqtisodiyotning sikliligi	2	2	6
26	Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik	2	2	6
27	Jahon xo’jaligi va uning evolyutsiyasi	2	2	6
28	Xalqaro iqtisodiy integratsiya	2	2	6
29	Valyuta kursi	2	2	6
30	To’lov balansi va uning taqchilligi	2	2	6
Jami		**60**	**60**	**180**

Adabiyotlar

1. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz-media, 2017. – 783 bet.
2. O’lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014. – 480 bet.
3. Xajiev B.D., Mamaraximov B.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 548 bet
4. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. – 756 b.
5. David Romer, Advanced Macroeconomics, any edition, McGraw-Hill

Qo’shimcha adabiyotlar

1. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics, 8th Edition. Gengage Learning, 8th edition (January 1, 2017) ISBN-13: 978-1337091992; John Sloman, Dean Garrat. Economics. Pearson. 10th edition. UK, 2018.
2. Razzoqov A. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O'rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b
3. Ziyayev T.M. Ishchi kuchi va bandlik nazariyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDIU, 2009. 56 bet
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд. М.: ИНФРА-М, 2019. – 1152 с.
5. Экономическая теория: учебник / С.С. Носова. – 4-е изд., стер. – Москва: КНОРУС, 2017. – 792 с.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. https://my.edu.uz/ – ta'lim portali
4. https://www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
5. https://gov.uz/oz/soliq – O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi
6. https://customs.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi
7. https://www.cbu.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
8. https://stat.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Seshanba	15:00	513 xona
2.	Juma	15:00	515- xona

Baholash:

	Oraliq nazorat		Yakuniy nazorat	Jami ball
Nazorat soni	I	II	I	100
Ajratilgan ball	30	30	40	
Nazorat turi	Seminar mashg'ulotlari va og'zaki-yozma nazorat (30 ball)	Mustaqil ta'lim ishlanmasi: loyiha yoki referat (30 ball)	Yozma ish yoki test (40 ball)	

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar		
Fan kodi: IAKT1105	**Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):** 5	**davomiyligi:** 1 semestr
Kafedra: Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Logistika		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Narzullayeva Feruza Sodiqovna		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 150	**Email:** narzullayevafe@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Narzullayeva Feruza Sodiqovna		
Prerekvizitlar: Axborotlarni qayta ishlash uchun texnik ta'minot, zamonaviy operatsion tizimlar funksiyalari bilan tanishish va dasturiy vositalarda iqtisodiy masalalarni yechishni o'rganish, Iqtisodiyotni turli sohalarida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish asoslarini o'rgatish, Elektron hukumat to'g'risida amaliy ko'nikmalar va nazariy bilimlar bilan har tomonlama tanishtirib chiqish, Elektron biznes turlari bilan tanishish va savdo amallarini bajarishni o'rganish, Katta hajmdagi kelib tushayotgan axborotlarni samarali qayta ishlash uchun intellektual tizimlar va biznes-analitikadan foydalanish	**Tanlov turi:** majburiy fan	
Fanning qisqacha bayoni: *Fan talabalarda axborot muhitida ma'lum bir dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilish bilan birga, uning axborot madaniyatini egallashda asosiy rol o'ynaydi. Fan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asoslari, zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning atrof qurilmalari, tizimli dasturiy ta'minoti, amaliy dasturiy vositalar, Web-dizayn asoslari va Microsoft Office dasturiy vositalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan.*		

Fanning maqsadi: Talabalarni iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etishning imkoniyatlari, afzalliklari, dasturiy va texnologik ta'minoti, zamonaviy texnik vositalar, operatsion tizimlar va zamonaviy dasturlarda axborotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama tanishtirishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Zamonaviy operatsion tizimlar, matnli, jadvalli axborotlarni qayta ishlash dasturlarining funksional imkoniyatlari bilan tanishish;
- Boshqaruv jarayonlarida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishning nazariy asoslari va ularni milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga tadbiq qilish usullarini o'rganish;
- Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va katta ma'lumotlar bazasida (Big Data) axborotlar

bilan ishlashni o'rganish;

- Internet tizimi va tarmoq texnologiyalarida ishlash uchun amaliy ko'nikmalar olish;
- Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo'yicha tushunchaga ega bo'lish; bulutli texnologiyalar, blokcheyn texnologiyalari, kriptoaktivlar, biznes analitika, elektron biznes tushunchalari;
- Axborotlar bilan ishlashda xavfsizligini ta'minlash usullarini tadbiq etish va funksional imkoniyatlari bilan tanishish; elektron hukumat, elektron tijorat va mobil-tijoratni rivojlanish tendensiyalari, yo'nalishlari va tasnifini o'rganish;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan insholar, taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar faniga kirish	2	2	6
2	Matn muharrirlarida matnni tahrirlash va cheklash, matnlarni saqlash	2	2	6
3	Iqtisodda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar sohasida elektron jadvallarni yaratish texnologiyasi	2	2	6
4	Excel dasturida funksiyalar bilan ishlash	2	2	6
5	Excel dasturida BIP va GIP funksiyalar bilan ishlash	2	2	6
6	Jadval prosessorlarida sohaga oid sonli ma'lumotlar bilan ishlash	2	2	6
7	Excel dasturida Dashboard yaratish	2	2	6
8	Iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish uchun ma'lumotlarni vizuallashtirish vositalaridan foydalanish	2	2	6
9	Ma'lumotlar bazalari va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari. Access dasturida yozuvlarni kiritish va tahrirlash	2	2	6
10	Access dasturida so'rovlar bilan ishlash. Access dasturida shakllar (formalar) bilan ishlash	2	2	6
11	Taqdimotlarni ishlab chiqishning instrumental vositalari	2	2	6
12	Power Pointda 3D modellar bilan ishlash. Kreativ slaydlar yaratish	2	2	6
13	Bulutli texnologiyalar va ular bilan ishlash	2	2	6
14	Blokcheyn texnologiyasi va undan foydalanish yo'llari	2	2	6
15	Elektron biznes va mobil-tijorat	2	2	6
Jami		**30**	**30**	**90**

Adabiyotlar

1. Turdiyeva G.S., B.S.Qurbonov., G.Y.Bo'ronova. Ta'limda axborot texnologiyalari. Durdona-2021. 268-bet.
2. Tursunov S., Nazarov I., Bazarbayev M., Ermetov E., Sayfullayeva D. Ta'limda axborot texnologiyalari. I – II tom. 2021.
3. R.A. Dadabayeva, Sh.T. Nasridinova N.X, L.T. Ibragimova, Sh.T. Ermatov. Axborot kommunikasiya texnologiyalar va tizimlar. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent 2017
4. F.S.Narzullayeva "Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar" Durdona-2023. 297-bet
5. М. И. Базарбаев, Э. Я. Эрметов, Д. И. Сайфуллаевна. Информационные технологии в образовании. Учебник. - Uzkitob savdo nashriyoti, 2021 – 388 стр.
6. Исмоилова М.Н., Атамурадов Ж.Ж., Жалолов О.И. Информационные технологии в образование. Учебное пособие – Дурдона, 2020 – 332 стр.
7. Ё.С. Илхамова, М.Ю. Джуманиязова, Ш.Г. Маннанова. Информационные комплексы и технологии в экономике. Учебник. – Тошкент, 2020 – 648 стр.
8. Муродова Г.Б. Информационно-коммуникационные технологии в туризме. Учебник. – Kamolot, 2023 – 280 стр.
9. Облачные технологии в образовании: Сервисы Google. Монография / Г.И. Атаева, Г.Х. Тураева. / Бухара: 2022 – 120 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha: http://ictcouncil.gov.uz
2. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti: www.tuit.uz
3. Ilmiy-texnikaviy va marketing tadqiqotlari markazi: www.Unicon.uz
4. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi: www.natlib.uz
5. Axborot ta'lim tarmog'i: www.ziyonet.uz
6. O'zbek internet resurslarining katalogi: www.uz
7. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
8. Respublika pedagogika ta'lim muassasalari portali: www.pedagog.uz
9. «O'zbektelekom» AK: www.uztelecom.uz
10. Axborot resurs markazi www.assc.uz
11. Rossiya informatsion texnologiyalari universiteti: www.intuit.ru

Internet saytlari

1. https://tami.uz/matnga_qarang.php?id=933
2. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/axborot_texnologiyalari/Ma'lumotlar bazasi (Sh.Nazirov, A.Ne'matov, R.Qobulov, N.Mardonova).pdf
3. https://paradacreativa.es/uz/ma%27lumotlar-bazasining-xususiyatlari/
4. https://fayllar.org/malumotlar-bazasi-haqida-asosiy-tushunchalar-hozirgi-kunda-ins.html
5. https://azkurs.org/malumotlar-bazasi-va-uni-tashkil-qilish-tamoyillari-malumotlar.html
6. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/iqtisodiyotda-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari-va-tizimlari

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Seshanba	15:00	513 xona
2.	Juma	15:00	515- xona

Baholash:

	Oraliq nazorat		Yakuniy nazorat	Jami ball
Nazorat soni	I	II	I	100
Ajratilgan ball	30	30	40	
Nazorat turi	Seminar mashg'ulotlari va og'zaki-yozma nazorat (30 ball)	Mustaqil ta'lim ishlanmasi: loyiha yoki referat (30 ball)	Yozma ish yoki test (40 ball)	

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Xorijiy til		
Fan kodi: XT0413	**Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):** 10	**davomiyligi:** 2 semestr
Kafedra: Fakultetlararo chet tillar		
